



THE INFLUENCE OF NATIONAL VALUES ON THE SPIRITUALITY AND SOCIAL ACTIVITY OF YOUTH

Doniyor Ibragimov

Researcher, Namangan State University

d.ibragimov@gmail.com

Namangan, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: national values, youth spirituality, social activity, spiritual education, national identity, value transformation, globalization, spiritual and educational processes, social consciousness, educational mechanisms.

Received: 25.12.25

Accepted: 26.12.25

Published: 27.12.25

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the role of national values in shaping the spiritual maturity and social activity of young people. It highlights the historical and cultural roots of values, their functional significance in the development of society, and their impact on the worldview and life position of the younger generation. The study also examines the spiritual transformations observed in youth consciousness during globalization, the influence of various ideological factors, and the rapid expansion of the information space, which gives rise to new socio-spiritual challenges. Mechanisms for effectively integrating national values into youth education, pedagogical and social approaches, as well as the scientific foundations of spiritual and educational processes, are substantiated. Research findings indicate that national values play a crucial role in enhancing the spiritual development of youth, increasing their social activity, and strengthening their participation in societal life.

MILLIY QADRIYATLARNING YOSHLAR MA'NAVIYATI VA IJTIMOYIY FAOLLIGIGA TA'SIRI

Doniyor Ibragimov

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

d.ibragimov@gmail.com

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: milliy qadriyatlar, yoshlar maʼnaviyati, ijtimoiy faollik, maʼnaviy tarbiya, milliy oʻzlik, qadriyatlar transformatsiyasi, globallashuv, maʼnaviy-maʼrifiy jarayon, ijtimoiy ong, tarbiyaviy mexanizmlar.

Annotatsiya: Maqolada milliy qadriyatlarining yoshlar maʼnaviy kamoloti va ijtimoiy faolligini shakllantirishdagi oʻrni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Unda qadriyatlarining tarixiy-madaniy ildizlari, ularning jamiyat taraqqiyotidagi funksional ahamiyati hamda yosh avlod dunyoqarashi va hayotiy pozitsiyasiga koʻrsatadigan taʼsiri yoritilgan. Shuningdek, globallashuv jarayonida yoshlar ongida kuzatilayotgan maʼnaviy oʻzgarishlar, turli mafkuraviy taʼsirlar, informatsion makonning keskin kengayishi va buning natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-maʼnaviy muammolar tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlarni yoshlar tarbiyasiga samarali tatbiq etish mexanizmlari, pedagogik va ijtimoiy yondashuvlar, maʼnaviy-maʼrifiy ishlarning ilmiy asoslari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari milliy qadriyatlarining yoshlarning maʼnaviy barkamolligini oshirish, ijtimoiy faolligini kuchaytirish hamda jamiyat hayotidagi ishtirokini kengaytirishda muhim omil ekanini koʻrsatadi.

**ВЛИЯНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ НА ДУХОВНОСТЬ И
СОЦИАЛЬНУЮ АКТИВНОСТЬ МОЛОДЕЖИ**

Дониёр Ибрагимов

Исследователь Наманганского государственного университета

d.ibragimov@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: национальные ценности, духовность молодежи, социальная активность, духовное воспитание, национальная идентичность, трансформация ценностей, глобализация, духовно-просветительский процесс, общественное сознание, воспитательные механизмы.

Аннотация: В статье проводится научно-теоретический анализ роли национальных ценностей в формировании духовной зрелости и социальной активности молодежи. Рассматриваются историко-культурные корни ценностей, их функциональное значение в развитии общества, а также их влияние на мировоззрение и жизненную позицию молодого поколения. Кроме того, анализируются духовные изменения в сознании молодежи в условиях глобализации, воздействие различных идеологических факторов, резкое расширение информационного пространства и возникающие в связи с этим

социально-духовные проблемы. Обоснованы механизмы эффективного внедрения национальных ценностей в воспитание молодежи, педагогические и социальные подходы, научные основы духовно-просветительской деятельности. Результаты исследования показывают, что национальные ценности являются важным фактором в повышении духовного совершенствования молодежи, усилении их социальной активности и расширении участия в общественной жизни.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida jamiyat hayotining barcha sohlarida sodir bo'layotgan tezkor o'zgarishlar yoshlar ma'naviyati va ijtimoiy faolligini shakllantirish masalasini dolzarb vazifalardan biriga aylantirmoqda. Axborot makonining kengayishi, madaniy-mafkuraviy oqimlarning turlicha talqinlari, internet va ijtimoiy tarmoqlarning kuchli ta'siri yosh avlod dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy faolligi shakllanishida sezilarli o'zgarishlar yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda milliy qadriyatlarning yoshlar ongidagi o'rni va ularning ma'naviy immunitetini mustahkamlashdagi ahamiyati nihoyatda ortib bormoqda.

Milliy qadriyatlar – bu asrlar davomida shakllangan, xalqning tarixi, madaniyati, urf-odatlar, ma'naviy tajribasi va hayot tarzi bilan uzviy bog'liq bo'lgan barqaror ijtimoiy-ma'naviy kategoriya hisoblanadi. Ular yosh avlodning ma'naviy kamoloti, axloqiy qarashlari, ijtimoiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, milliy qadriyatlar yoshlarning milliy o'zligini anglashiga, jamiyat hayotidagi o'z o'rnini belgilashiga, Vatanga sadoqat va mas'uliyat tuyg'ularini rivojlantirishga ko'mak beradi.

Shu bilan birga, zamonaviy jarayonlar milliy qadriyatlarga nisbatan munosabatni qayta ko'rib chiqishni, ularni yoshlar tarbiyasiga zamonaviy pedagogik va ijtimoiy yondashuvlar orqali singdirishni talab qilmoqda. Milliy qadriyatlarni yoshlarning ma'naviyati va ijtimoiy faolligini yuksaltirish jarayoniga izchil tatbiq etish, ta'lim muassasalari, oilalar, jamoatchilik va ma'naviy-ma'rifiy markazlarning hamkorlikdagi faoliyatini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Mazkur maqolada milliy qadriyatlarning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni, ularning ijtimoiy faollik va ma'naviy rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar, shuningdek, zamonaviy sharoitda ularni samarali targ'ib etishning ilmiy-uslubiy asoslari tahlil qilinadi.

Har bir davrning mazmun-mohiyatini, rivojlanish qonuniyatini to'g'ri anglab va tushunib yetishda eng muhimi davrning mazmunini belgilab beruvchi jarayonlarni, tushunchalarning mazmunini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda hayotimizda ijtimoiy, siyosiy,

madaniy va ma'naviy sohalarida keng qo'lanilayotgan globallashuv tushunchasi ko'plab siyosatchi, faylasuf olimlarni qiziqtirib kelmoqda. Chunki jamiyat taraqqiyoti bevosita ana shu jarayonni to'g'ri anglash bilan bog'liq ekanligi kundan-kunga ravshan bo'lib bormoqda.

Meni doimo o'ylantiradigan, tashvishga soladigan yana bit dolzarb masala bu-yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so'z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog'liq[1. – B. 257]. Tarbiya inson shaxsi ma'naviyatini, e'tiqodini, o'zini anglash, yon-atrofga bo'lgan munosabatini shakllantirishga qaratilgan jarayondir. Shunday ekan, ushbu jarayon mutanosibligini ta'minlashda ta'lim- tarbiya ishini uyg'un tarzda olib borish lozim bo'ladi. Ta'lim orqali yoshlar haytida o'z o'rinlarini topishda ma'lum bir kasb- hunarni o'rganish bilan birga, o'zlarini bo'lajak hayotga tayyorlab boradilar.

Yoshlar dunyoqarashida milliy-ma'naviy qadriyatlarga tayanish, uning talqini va jamiyatimizda iqtisodiy- siyosiy islohotlarni amalga oshirishda tutgan o'rni bugungi muhim muammolar jumlasidandir. Millat uchun erkinlik adolat tantanasining oliy ifodasidir. Erkinlik birovni o'ziga qaram qilishga, birovning mol- mulkini talon- taroj etishga, birovga xiyonat qilishga, birovni o'ldirishga yoki zarar yetkazishga yo'l qo'ymaydi. Chunki erkinlik qonunga asoslanadi: qonun doirasida olibyu borilgan ishlar va xatti- harakatlar ahloqiy hamda huquqiy qadriyatlar jihatidan haqli hisoblanadi. Kundalik turmushda, o'zaro munosabatlarda inson erkinligi qonun hamda axloqiy normalar bilan cheklangan bo'ladi. Erkinlikni to'g'ri tushunib, uni hayotimizga to'hri tatbiq etganimizdagina, bu buyuk ne'mat- adolat va erkinlikni saqlab qolishimiz va undan keyingi avlodlarimiz ulardan bahra olishlari mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Qadriyat tushunchasining ijtimoiy-falsafiy adabiyotlarda ko'pgina ilmiy ta'riflari mavjud. Berilgan ta'riflarni tahlil etish bir tomondan turli xil yondashuvlarning mavjudligini, ikkinchi tomondan esa, ularning butunlay bir-birini inkor etishi hollarining mavjud ekanligini ko'rsatadi. Masalan, "Falsafiy ensiklopediya"ning beshinchi jildida qadriyatlar quyidagicha tavsiflangan: "Qadriyat falsafiy va sosiologik tushuncha. U birinchidan, bir ob'ektning ijobiy yoki salbiy qimmatini, ikkinchidan, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi- baholovchi jihati (sub'ektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlari)ni ifoda etadi"[2. – C. 462.]. Rus tilidagi "ценност" ya'ni qadriyat tushunchasiga, kishilarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga, ma'naviy dunyoqarashiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan barcha narsa va hodisalar kiritilgan.

"Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim[3. – B. 48.]. Rus, ingliz, nemis, fransuz va chex tillarida Rossiya Fanlar Akademiyasining

akdemigi G.V.Osipov muharrirligida chop etilgan “Sosiologicheskiy ensiklopedicheskiy slovar” da qadriyatlarni baholash, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy qadriyatlar, qadriyatlar yo’nalishi va umuman qadriyatlarga ta’riflar berilgan[4. – C. 402-403.]. Qadriyatlar tushunchasiga “Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug’ati”da ham alohida o’rin ajratilgan.

“Qadriyatlar – jamiyatda kishilar o’rtasida obro’ga, e’tiborga, hurmatga, nufuzga, ahamiyatga ega kishilar munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma’naviy boyliklar majmuasi”[5. – B. 279.] degan ta’rif berilgan. Qadriyatlarni bunday ta’riflash uning mohiyatini ancha yorqin ifodalasada, lekin qadriyatlarga berilgan ta’riflar ichida o’zining ilmiyligi bilan boshqa ta’riflardan ajralib turadi, degan fikrdamiz. Bizningcha, “umuminsoniy qadriyatlar tushunchasi butun jamiyat ahamiyatiga ega bo’lgan, insoniyatning mavjudligi, o’tmishi, buguni va kelajagini, yashashning asosiy yo’nalishlari, qonun-qoidalarini, talab va tartiblarini, odamlarning eng azaliy orzu-umidlari va ideallarini o’zida aks ettiradigan qadriyatlarining umumiy shakllarini ifodalaydi. Umuminsoniy qadriyat tushunchasining ob’ektiv asosi ijtimoiy munosabatlar va jarayonlar, insoniyatning uzluksiz xayotini va turmush tarzini umumlashtiradigan jamiyatdir”. Darhaqiqat “umuminsoniylik” tushunchasida qadriyatlarni tirik tabiatning bir qismi bo’lgan odam zotining hayoti va kamoloti uning tarixiy taraqqiyoti, siyosiy va boshqa birliklar uchun ahamiyati o’z ifodasini topishi kerak. SHu o’rinda insoniyatning eng umumiy jamoasi bo’lgan jamiyatgina, umuminsoniy qadriyatlarning yaratguvchisi va saqlab turuvchisidir. Umuminsoniy qadriyatlar nihoyatda keng ko’lamli va serqirra tushuncha. Uning zaminida eng avvalo ozodlik, erkinlik, tinchlik, demokratiya tufayli shakllangan inson baxt-saodati kabi umumijtimoiy ma’no va mazmun kashf etadigan qadriyatlardan iborat, deyish mumkin. Qadriyatlarni faqat moddiy va ma’naviy boyliklar sifatida tushunish va uni shunday izohlash ham ilmiy nuqtai nazardan to’g’ri emas.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, qadriyat falsafiy tushuncha bo’lib, u ilmiy tushunchalardan farqli ravishda obrazli – mavhum tushunchadir. Ya’ni qadriyat deganda hamisha ijobiylik, foydalilik, yoqimlilik, taraqqiyot, go’zallik, insoniylik, ezgulik tasavvuri tug’iladi. Xuddi shuningdek, qadriyatlarni ijobiy va salbiy, ilg’or va qoloq kabilarga ajratish ham, sinfiy qadriyatlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlardan ustun qo’yish ham xatodir. Ayrimlar qadriyatlarning vujudga kelishini kishilarning ishlab chiqarish, mehnat sohasidagi faoliyatlari bilan bog’laydilar[6. – B. 67]. Qadriyatlarni anglash, olamga qadriyatli munosabatda bo’lish, avvalo, insonning ma’naviy salohiyatiga bog’liqdir. Zero, mehnatning ijtimoiy ahamiyatini anglash, samarali va sifatli mehnat faoliyati bilan shug’ullanishdan oldin inson o’z bilimi, malakasi va mahoratini yuksaltirish kerak[7. – B.39.]. Inson ma’naviyatini yuksaltirmay turib, olamga qadriyatli munosabatni shakllantirib bo’lmaydi.

Qadriyatlar mohiyatini falsafiy-aksiologik jihatdan to'g'ri tushinishda Q.Nazarovning mulohazalari e'tiborga loyiqdir: "Qadriyat biror-bir tarzda, shaklda zohir bo'ladigan, sub'ekt uchun muayyan ta'sirini namoyon qiladigan voqelikning turli-tuman shakllari, ko'rinishlari, narsalar, hodisalar, jarayonlar, munosabatlar, turli sifatlar, xususiyat, axloq va ma'naviylik mezonlari hamda boshqalarning sub'ekt uchun ijtimoiy ahamiyatli va qadrini ifodalaydigan umumiy aksiologik kategoriyadir"[8. – B.41.].

Tahlil va natijalar. Bu tamoyil va qadriyatlar O'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan har bir fuqaroning o'z milliy qadriyatlarini asrab - avaylashi, kelajak avlodlarga etkazishi uchun to'la imkoniyatlar yaratilishini ifodalaydi. O'tmishdagi bobolarimiz qoldirgan meros, madaniy boyliklar, mumtoz qadriyatlarni hurmat qilish, ularni o'rganish, ular zamiridagi bu tamoyilning asosiy jihatlaridir. Har bir millatning tili, qadriyatlari, urf-odatlar, an'analarini hurmat qilishni ta'minlash milliy istiqloq mafkurasining amal qilishida umuminsoniy andozalar namoyon bo'lishi uchun asoslar yaratadi. Milliy an'analar - milliy qadriyatlarning bir bo'lagi bo'lib, u millat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlar, faoliyat turlari, odatlar va islohotlarning avloddan - avlodga o'tish hamda meros bo'lib qolish tarzi.

Jamiyatda yoshlar tarbiyasi muammolari har doim kunning birinchi darajali mavzularidan biri bo'lib kelgan. Ayni paytda, dunyoda globallashtirish jarayoni tezlashmoqda. Dunyo xalqlari, davlatlar o'rtasida o'zaro aloqalar kuchaymoqda. O'zbekiston ham undan chetda turgani yo'q. Turli xalqlarga xos bo'lgan qadriyatlar O'zbekiston yoshlari hayotiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday muhit xalqaro axborot tizimi, internet, OAV, reklama, turli xil kino ko'rsatuvlari bilan bog'liq asarlar yoshlar ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatishi, turli xil qadriyatlarning kirib kelishiga sharoit hozirlaydi.

Ijtimoiy hayotda, ayrim yoshlarning xatti-harakatlarida milliy qadriyatlarimizga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan holatlarni kuzatish mumkin. Ayrim yoshlarning diniy ekstremizm, aqidaparastlik g'oyalarining tarafdori bo'lib sodir etgan qilmishlari bilan milliy qadriyatlarimiz o'rtasida o'zaro to'g'ri kelmaydigan holatlarni kuzatish mumkin. Toshkent, Buxoro, Andijonda bo'lib o'tgan voqealar oldimizda yoshlar dunyoqarashiga milliy qadriyatlarimizni singdirish va unga sodiq qilib tarbiyalash kabi muhim vazifalar turganini ko'rsatadi. Aksariyat yoshlarimiz esa milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan o'zlarining to'g'ri munosabatlarini shakllantirgan. Qadriyatlarni targ'ib etadigan urinishlarga, xususan, aqidaparastlikka nisbatan o'zlarining salbiy munosabatlarini bildirishlarini yuksak baholash lozim. Bugun jahon axborot maydonida yoshlarni milliy qadriyatlarga qarshi tarbiyalashga urinish kuchaymoqda. Qadriyatlarga munosabatni o'zgartirmasdan demokratik jamiyat qurib bo'lmasligi to'g'risidagi fikrlar ostida qanday yashirin maqsadlar yotgani tobora ayon bo'layotir. Bunday harakatlar yoshlarni o'z

xalqi, vatani va milliy qadriyatlarga nibatan bepisand ruhda tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, ularda ko'proq g'arbona qadriyatlarga moyillikni uyg'otishga bo'lgan yashirin maqsadlar mujassam bo'ladi.

Yoshlar ma'naviyati va ijtimoiy faolligini yuksaltirishda milliy qadriyatlar muhim ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlar, bir millatning tarixiy, madaniy, adabiy, san'at va axloqiy yotidagi afzalliklarni ifodalaydigan qadr-qimmatli manbalardir. Bu qadriyatlar yoshlarga o'z milliy identitetlarini, ularning asosiy qadriyatlarini, qadr-qimmatlarini va xalqaro jamiyatga o'zining unikal xususiyatlarini ta'lim etadi.

Milliy qadriyatlar, yoshlarga o'z milliy identitetlarini aniqlashda va qadr-qimmatlarini ta'lim etishda muhim ahamiyatga ega. Bu, ularning o'z millati, til va madaniyati bilan bog'liq bo'lgan asosiy tushunchalarini, g'oya va qadriyatlarini tushunishga yordam beradi. Identitet tushunchasi, yoshlarni o'z tarixiy, madaniy va adabiy mirasiga bog'liq hislarni rivojlantirishga va o'z millati bilan iftixor qilishga olib keladi.

Milliy qadriyatlar, yoshlarga milliy qadr-qimmatlarni muhofaza qilishga va o'zining unikal xususiyatlarini qadrlashga yordam beradi. Bu qadriyatlar orqali, yoshlar o'zlarining oilaviy, adabiy, madaniy, diniy va ta'limiy qadr-qimmatlarini, qo'ng'iroqlarini, adabiyotlarini, ertaklari tarixiy shaxslarini, milliy o'yinlarini va musiqalarini o'rganish va qadrlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Milliy qadriyatlar yoshlarni jamiyatga xizmat qilish va o'z mamlakati, millati va xalqini o'zlashtirishga o'rgatadi. Bu qadriyatlar yoshlarga milliy xizmat, fuqarolik, jamiyatga foyda yetkazish, o'zaro hurmat va mehribonlik prinsiplarini o'rgatadi. Ular yoshlarga ijtimoiy faolliglarida aktif qatnashishni, milliy yashashgan joylarini muhofaza qilishni va milliy aloqalarini rivojlantirishni o'rgatadi.

Milliy qadriyatlar tarbiya va o'qitish jarayonida yoshlarga katta ahamiyatga ega. Ular yoshlarga milliy adabiyot, tarix, musiqa, san'at, madaniyat, milliy o'yinlar va tanqidning asosiy tamoyillarini o'rgatishda yordam beradi. Bu tarbiya va o'qitish jarayonida milliy qadriyatlar yoshlarga milliy identitetlarini, xalqaro mehribonlik va barqarorlik prinsiplarini o'rgatadi.

Xulosa. Milliy qadriyatlar, yoshlarda ma'naviyat bilan bog'liq hislar, o'ziga ishonch, insonparvarlik, milliy g'oya va hamkorlik ruhini rivojlantirishga yordam beradi. Bu qadriyatlar yoshlarga o'z millatlari va jamiyatlariga qadr-qimmat qo'shish, ularning o'zlarini o'zlashtirish va o'zaro xalqaro aloqalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Bunday milliy qadriyatlar yoshlarni ma'naviy va ijtimoiy ravishda o'sishga yordam beradi va ularga o'z mamlakatlarini, milliyatlarini va dunyodagi o'ziga xos joylarini xushro'ylik bilan ta'lim etadi.

Yoshlar ma'naviyati va ijtimoiy faolligini yuksaltirishda milliy qadriyatlarning tutgan o'rni beqiyosdir. Tadqiqot jarayonida ko'rsatildiki, milliy qadriyatlar nafaqat yoshlarning ma'naviy-axloqiy qarashlarini shakllantiradi, balki ularning jamiyatdagi faol ishtirokini, fuqarolik pozitsiyasini va mas'uliyatini kuchaytiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, an'analar, ma'naviy meros, diniy-ma'rifiy manbalar va xalq og'zaki ijodi yoshlarning milliy o'zligini anglashiga, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalanishiga hamda sog'lom ijtimoiy fikrga ega bo'lishiga xizmat qiladi.

Globallashuv, axborot oqimining keskin ortishi, turli mafkuraviy va g'oyaviy ta'sirlar yosh avlod dunyoqarashida ma'lum darajada qarama-qarshiliklarni yuzaga keltirayotgan bir davrda milliy qadriyatlarga tayanish yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday sharoitda milliy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini chuqur anglash, ularni zamonaviy shakl va metodlarda yoshlar ongiga singdirish, ta'lim va tarbiya jarayoniga tizimli ravishda tatbiq etish – ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning eng ishonchli yo'llaridan biridir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar asosida shakllangan ma'naviy immunitet yoshlarni yot g'oya va mafkuraviy tahdidlardan himoya qiladi, ularda ijtimoiy mas'uliyat, tashabbuskorlik, fuqarolik faolligi va intellektual salohiyatni oshiradi. Shu bois ta'lim muassasalari, oilalar, jamoatchilik tashkilotlari va ma'naviy-ma'rifiy markazlar hamkorligida milliy qadriyatlarni targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish zarur.

Umuman olganda, milliy qadriyatlarni yoshlar hayotiga samarali singdirish, ularning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash hamda ijtimoiy faolligini oshirish jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo'lib, mamlakat kelajagini barqaror va ravnaq topgan holda tasavvur etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021. 257 б.
2. Философская энциклопедия. – М.: 1970. Т 5, – С. 462.
3. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot (ilmiy ishlar to'plami), – T.: O'zbekiston, 1997, – B. 198; Komilova T., Abidova S. Milliy axloqiy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati, – T.: “Fan”, 2000. – B. 20; Erasov B.S. Kulturnologiya, 2-e izd., – M.: “Aspekt-Press”, 1997. – S. 591; Ortiqov N. Ma'naviyat: Milliy va umuminsoniy qadriyatlar. – T.: “O'zbekiston”, 1997. – B. 48.
4. Г.В.Осипов. Социологический энциклопедический словарь. – М., 2000, – С. 402-403.

5. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at. A. Jalolov va Q. Xonazarov umumiy tahririda. – T.: “Sharq”, 1998. – B. 279.
6. Musulmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. T.:O'qituvchi. 1996. –B. 67.
7. Jalolov A. O'zbekiston: mustaqillik, ma'naviyat, mafkura. -T.: O'zbekiston, 1994. – B.39.
8. Nazarov Q. Aksiologiya. Qadriyatlar falsafasi. -T.: Ma'naviyat, 1998. -B.41.
9. Эргашев И. Ёшларнинг ижтимоий фаоллиги. –Т.: “Академия”, 2008. 15-16-бетлар.